

Umirova Mamlakat Imomovna
ISFT instituti “Filologiya” kafedrasi o‘qituvchisi, Toshkent, O‘zbekiston
mamlakatumirova03@gmail.com
telefon: 90 131 22 70

UMUMIY O’RTA TA’LIMDA O’ZBEK TILINING LUG’AT TIZIMINI O’RGATISH NUTQ O’SТИRISHNING ASOSI SIFATIDA

Annotatsiya: Mazkur maqlada umumiy o‘rtta ta’limda o‘zbek tilining lug‘at tarkibini o‘rgatish, nutqiy madaniyatni o‘sтиrishning nazariy va amaliy asoslari haqida fikr yuritilgan. So‘zlarning izohi va ularning ma’noviy guruhlarini lingvistik ongda aks ettirishga qaratilgan topshiriqlar va ularning turlari haqida ma’lumot berilgan. Maqlada ona tili darsliklaridagi ayrim topshiriqlar tahlil qilingan.

Tayanch so‘zlar: Nutqiy kompetensiya, lingvistik kompetensiya, nutqiy madaniyat, lug‘aviy ma’no, lingvistik ong, faol so‘zlar.

Abstract: This article discusses the theoretical and practical foundations of teaching the vocabulary of the Uzbek language and developing speech culture in general secondary education. Information about tasks and their types aimed at reflecting the interpretation of words and their meaningful groups in the linguistic mind. The article analyzes some tasks in the current mother tongue textbooks.

Key words: Speech competence, linguistic competence, speech culture, lexical meaning, linguistic consciousness, active words.

Аннотация: В данной статье рассматриваются теоретические, практические основы преподавания лексики узбекского языка и развития культуры речи в среднем образовании. Информация о заданиях и их видах направлена на отражение интерпретации слов и их смысловых групп в языковом сознании. В статье анализируются некоторые задачи в учебниках родного языка.

Ключевые слова: Речевая компетентность, языковая компетентность, культура речи, лексическое значение, языковое сознание, активные слова.

Ona tili darslarida tilimizning grammatik imkoniyatlarini o‘rgatish bilan bir qatorda nutqiy madaniyatini oshirish ham ko‘zda tutiladi, o‘quvchilarning tafakkurini kengaytirish, o‘zgalarning fikrini tinglash va tushunish, erkin fikr yurita olish ko‘nikmalarini shakllantirish maqsadi ko‘zlanadi. Bugungi kunda ona tili darslarida o‘quvchilarning o‘z fikrini og‘zaki va yozma shaklda savodxonlik bilan bayon qila olishga qaratilgan nutqiy kompetensiyalarni hamda grammatikaga oid bilimlarni hosil qilish, ona tilining boy imkoniyatlaridan o‘rinli foydalana olish ko‘nikmasiga asoslangan lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish vazifasini bajarish ko‘zda tutiladi.

Ona tili darslariga faqatgina o‘quv fani sifatida yondashish yetarli bo‘lmaydi, balki bu jarayonga butun jamiyat ahamiyatiga molik bo‘lgan nutqiy madaniyatni, nutqiy kompetensiyani shakllantirishga qaratilgan ta’lim jarayoni sifatida yondashish lozim bo‘ladi. Bu borada, ayniqsa, lingvistikaning leksikologiya bo‘limi muhim ahamiyatga ega. Ma‘lumki, tilimizda mavjud bo‘lgan lug‘aviy birliklar, ya’ni so‘z, ibora va tasviriy ifodalar muayyan tilning lug‘at tarkibini

tashkil etadi. Leksikologiya bo‘limda lug‘aviy birliklarning nutqda qo‘llanishi, ma’no ko‘chish hodisalari, eskirishi, faol yoki nofaol so‘zlar qatlami, yangi so‘zlar, so‘zlarning shakl va ma’noviy jihatdan imkoniyatlari o‘rganiladi. Bir so‘z bilan aytganda, leksikologiya tilning leksik tizimini o‘rganishning lingvistik asosi hisoblanadi. Leksikologiya alohida bo‘lim sifatida o‘rgatilsa-da, o‘rganilgan lingvistik asoslar tilshunoslikning boshqa bo‘limlari bilan uzviy ravishda nutqiy ko‘nikmaga aylantiriladi, so‘zdan o‘rinli foydalanish malakasi shakllantiriladi. Leksikologiyani tilshunoslikning boshqa bo‘limlari bilan izchillikda o‘rgatish orqali o‘zbek tilining lug‘at tarkibini o‘zlashtirish va uni faol so‘zlar lug‘atida aks ettirishga erishish mumkin.

Tilning lug‘at tarkibini o‘rgatish so‘zlarning ma’noviy guruhlarini, sinonimlarini lingvistik ongda aks ettirish bilan amalga oshiriladi. O‘quvchilarning so‘z boyligini oshirishning asosiy jihat so‘zning ma’nosini (ma’no tizimi) va qo‘llanishi ustida ishlashdan iborat.[3]

O‘quvchilarning lingvistik ongida so‘zlarning izohini aks ettirishni quyidagi topshiriqlar yordamida amalga oshirish mumkin:

- * so‘zning atash ma’nosini tushuntirish;
- * gapda yoki matnda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning ma’nodoshini topish;
- * gapdagagi ayrim so‘zlarni ma’nodoshlari bilan almashtirish;
- * so‘zni matn asosida mantiqiy talqin qilish;
- * so‘zlarning ma’noviy guruhlarini tuzish;
- * berilgan so‘zlarning ma’nodoshlarini topish;
- * gapdagagi nuqtalar o‘rniga mos keladigan so‘zni topish;
- * matndagi g‘aliz qo‘llangan so‘zlarni aniqlash va tahrirlash.

O‘qituvchi tilning lug‘at tarkibini o‘rgatishga doir mashg‘ulotlar olib borar ekan, o‘quvchida so‘zlarning semantik ma’nosini yetarli darajada idrok eta olish va izohlash qobiliyatini shakllanganligiga e’tibor bermog‘i lozim. 5-6 sinf o‘quvchilari so‘zlarning izohini bilmasligi yoki izohlash ko‘nikmasiga ega bo‘lmag‘i mumkin. Bunday vaziyatda o‘qituvchining yordamini bilan yoki lug‘atlar asosida ishlanadi. O‘quvchiga mazkur so‘zning belgilarini namoyon qiladigan vaziyatlarni ko‘rsatish yoki eslatish orqali induktiv mashqlar bajartiriladi, mavjud imkoniyatlar asosida yangi tushuncha va yangi faol so‘zlar zaxirasi hosil qilinadi, shu bilan bir qatorda, ayrim o‘quvchilar nutqiy faoliyatida ikkilanishlarga, chalkashlik yoki g‘alizliklarga sabab bo‘ladigan so‘zlar ma’nolarini ham aniq tushuntirib berishga erishiladi. Masalan, o‘quvchi *alanga* so‘zining lug‘aviy ma’nosini yaxshi bilsa-da, *yolqin* so‘zini bilmag‘i mumkin. Bu so‘zning *alanga* so‘ziga sinonim ekanligini [7] to‘g‘ridan to‘g‘ri tushuntirmasdan *olovning yolqini* tarzidagi jumlalar misol sifatida keltirilsa, o‘quvchi kuzatadi, tahlil qiladi va mustaqil fikrlaydi. O‘quvchi uchun mavhum bo‘lgan so‘zlarning ma’nolarini tushuntirishda badiiy asarlardan keltirilgan parchalar (*Shox o‘tinning o‘choqni to‘ldirib lovullayotgan yolqini qoraygan ko‘chaga shu’la sochmoqda* (P. Tursun)) yoki infografikalardan foydalanish ham samarali bo‘ladi. *Yolqin* so‘zining lug‘aviy ma’nosini tushuntirish jarayoni, yuqorida aytib o‘tilganidek, ayrim o‘quvchilar nutqidagi chalkashlik va ikkilanishlarga ham barham beradi. Ushbu talaffuzdosh so‘zlarning lug‘aviy ma’nolari lingvistik tahlillar (*yolqin – ot, yorqin – sifat*) yordamida tushuntirilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi: *yolqin* – yonayotgan narsadan ko‘tariluvchi o‘t, alanga; *yorqin* – yorug‘, yog‘duli, tiniq[6].

Nutq so‘z va so‘z birikmalarining grammatik hamda mazmuniy jihatdan izchil munosabatidan tashkil topadi. Albatta, tilning lug‘at tarkibini o‘rganish nutqda grammatik imkoniyatlardan samarali foydalanishga zamin yaratadi, nutqning boy, ifodaning esa aniq va ravon bo‘lishini ta’minlaydi.

Ona tili darsliklarida leksik birliklar tarkibi turli qiyinchilik darajasidagi topshiriqlar vositasida kengaytirib, mukammallashtirib boriladi. Shu o‘rinda misol sifatida ona tili darsliklaridagi topshiriqlarni taqqoslab o‘tamiz. 10-sinf ona tili darsligida ayrim birliklarning etimologiyasi (“*adoq – adzoq – ayaq – oyoq, ko‘n (teri) +lak – ko‘ylak, ti(demoq)+l – til, qo‘sh+ug‘ – qo‘shuq – qo‘shiq*”[5]), ushbu so‘zlarning til tarixida qo‘llangan variantlari keltiriladi. 5- va 6-sinf o‘quvchilarilariga umumiste’moldagi so‘zlar lug‘atida mavjud bo‘lgan birliklar, 10- va 11- sind o‘quvchilariga esa umumiste’moldagi so‘zlar bilan bir qatorda iboralar, tilimizda yangi so‘zlarning sinonimlarini topishga oid topshiriqlar beriladi. 6-sinf ona tili darsligida berilgan topsiriqqa ko‘ra o‘quvchilar bilan “*kasal, ranjimoq, sog‘aymoq, itoat, amir, dam olmoq, jazm etmoq*”[4] kabi so‘zlarning ma’nodoshlari ustida ishlanadi. 10-sinf ona tili darsligida esa “*samarali, kreativ, aql bovar qilmas, amin bo‘lmoq, muvaffaq bo‘lmoq, uddalay olmoq*”[5] kabi so‘zlarning sinonimlarini topish so‘raladi. Ushbu topshiriq sifatida berilgan so‘zlar qatorida tildagi yangi so‘zlar, iboralar ham mavjud.

Ona tili ta’limida o‘quvchilarining so‘z boyligini oshirishga qaratilgan bu kabi topshiriqlar nafaqat leksikologiya bo‘limi, balki boshqa bo‘limga oid mavzularning ham asosini tashkil etadi. Tilning lug‘at tarkibi grammatik tushunchalar bilan izchillikda bosqichma-bosqich o‘rgatib borilishi lingvistik hamda nutqiy kompetensiyalarning hosil qilinishiga zamin yaratadi. O‘quvchi nutqini shunday shakllantirishga erishmoq lozimki, ayni fikrni nutqiy sharoitdan kelib chiqqan holda so‘zlovchi maqsadiga, suhbatdosh yoki tinglovchining tabiatiga, ruhiy olamiga uyg‘un bo‘la oladigan tarzda ifoda eta olsin. Bunday ko‘nikmaga ega bo‘lish uchun, albatta, tilning lug‘at tarkibini o‘rganish va shu bilan bir qatorda uni o‘rinli qo‘llay olish, anglash va idrok eta olish lozim.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Ona tili o‘qitish metodikasi A. G‘ulomov, M. Qodirov va boshqalar. “Fan va texnologiya” nashriyoti.
2. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. B.To‘xliyev, M. Shamsiyeva, T.Ziyodova. O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti. Toshkent – 2006
3. Е. И. Литневская, В. А. Багрянцева Методика преподавания русского языка в средней школе Москва Академический проект 2006
3. Mavlonova K. M. va boshqalar. Ona tili. 6-sinf uchun darslik. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022.
4. 10-sinf uchun ona tili darslik/ B. Mengliyev. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022
6. O‘zbek tilining izohli lug‘ati (6 jildli). Toshkent-2022 G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyotmatbaa uyi.
7. O‘zbek tili sinonimlarining katta izohli lug‘ati (2 jildli). Toshkent-2022 G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyotmatbaa uyi.
8. X. Жамолхонов. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Тошкент – 2005 «Талқин» нашриёти.